



## **BUXORO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**


***Dastlabki ma'lumot  
2024- yil yanvar***



***Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel. 65-223-75-63***

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

## Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1- fevral holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 22 628 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 77 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 22 551 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar oyida viloyatining chakana savdo tovar aylanmasi 1 143,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar oyiga nisbatan 110,1 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 108,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 92,9 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 1 035,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 110,3 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 147,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 133,1 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>1 143,6</b>	<b>110,1</b>
Buxoro shahri	320,2	112,4
Kogon shahri	35,8	107,4
<i>tumanlar:</i>		
Olot	35,7	105,1
Buxoro	85,0	106,9
Vobkent	40,5	107,0
G'ijduvon	224,0	113,7
Kogon	54,9	102,2
Qorako'l	90,8	111,5
Qorovulbozor	26,8	109,7
Peshku	38,6	110,8
Romitan	79,4	110,6
Jondor	69,0	107,0
Shofirkon	42,9	104,5


2024- yilning yanvar oyida 2023- yilning yanvar oyiga nisbatan viloyatining Buxoro shahri (112,4 %), G'ijduvon (113,7 %) va Qorako'l (111,5 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

## Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar)




So'nggi 5 yillikda (2019- 2023- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 119,9 % ni tashkil qildi.

## 2024- yil uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda)



2024- yilning yanvar oyida o'sish sur'ati **110,1** % ni tashkil qildi.




Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Buxoro shahri 28,0 % bilan 320,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Qorovulbozor tumani 2,3 % bilan 26,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023 - yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

*Hajmi, mlrd. so'm*








## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024 - yilning yanvar oyida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 1 035,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar oyiga nisbatan 10,3 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 90,5 % ni tashkil etdi.




## Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar oyiga nisbatan 7,1 % ga kamaydi va 108,6 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 9,5 % ulushiga to'g'ri keldi.



## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)




 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Buxoro (99,5 %), Qorovulbozor (99,5 %) va Romitan (99,4 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 9,5 % ni tashkil etib, eng katta ulush Buxoro shahri (26,0 %), Peshku (30,6 %) tumanlarida kuzatildi.

9,5 %


90,5 %



 Yirik korxonalar


 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*

2024- yilning yanvar oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 564,2 ming. so'mni (2023- yilning yanvar oyiga nisbatan 108,3 %) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Buxoro shahri (1 096,9 ming. so'm), Qorovulbozor (1 359,6 ming. so'm) va G'ijduvon (700,5 ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.






Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari

**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	<b>Jami, mlrd. so'm</b>	<b>2023- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda</b>
<b>Buxoro viloyati</b>	65,4	142,2
Buxoro shahri	16,5	142,5
Kogon shahri	0,5	12,0
<i>tumanlar:</i>		
Olot	3,9	128,6
Buxoro	2,3	794,2
Vobkent	9,4	100,8
G'ijduvon	16,9	524,6
Kogon	0,8	434,1
Qorako'l	7,7	212,4
Qorovulbozor	0,6	164,7
Peshku	0,3	13,6
Romitan	2,1	76,6
Jondor	0,7	26,1
Shofirkon	3,7	147,0


\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tarihdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar)














## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2024- yil yanvar)



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 147,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar oyiga nisbatan 133,1 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 65,4 mlrd. so'mni (142,2 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 82,5 mlrd so'mni tashkil etdi (126,6 %).













2024-yilning yanvar oyida viloyatining barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 65,4 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (27,2 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

## Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p><b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b></p> <p>27,2 mlrd. so'm</p>  <p>41,6 %</p>	<p><b>Non va non mahsulotlari</b></p> <p>8,8 mlrd. so'm</p>  <p>13,4 %</p>	<p><b>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</b></p> <p>4,3 mlrd. so'm</p>  <p>6,6 %</p>
<p><b>Tovuq go'shti</b></p> <p>4,5 mlrd. so'm</p>  <p>6,9 %</p>	<p><b>Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</b></p> <p>3,6 mlrd. so'm</p>  <p>5,5 %</p>	<p><b>Tuxum</b></p> <p>2,1 mlrd. so'm</p>  <p>3,2 %</p>
<p><b>Ziravorlar</b></p> <p>1,1 mlrd. so'm</p>  <p>1,7 %</p>	<p><b>Sut va sut mahsulotlari</b></p> <p>1,9 mlrd. so'm</p>  <p>2,9 %</p>	<p><b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</b></p> <p>0,8 mlrd. so'm</p>  <p>1,2 %</p>
<p><b>Tuzlamalar</b></p> <p>1,6 mlrd. so'm</p>  <p>2,4 %</p>	<p><b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b></p> <p>0,5 mlrd. so'm</p>  <p>0,8 %</p>	<p><b>Nooziq-ovqat tovarlar</b></p> <p>9,0 mlrd. so'm</p> <p>13,8 %</p>

2024- yilning yanvar oyida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 82,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 70,3 mlrd.so'm, qo'y va echkilar – 11,6 mlrd. so'mni, otlar – 0,4 mlrd. so'mni, parrandalar – 0,2 mlrd. so'mni tashkil qildi.

**Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi**

<p><b>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</b></p> <p><b>45,0 mlrd. so'm</b></p>  <p><b>54,5 %</b></p>	<p><b>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</b></p> <p><b>15,1 mlrd. so'm</b></p>  <p><b>18,4 %</b></p>	<p><b>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</b></p> <p><b>10,2 mlrd. so'm</b></p>  <p><b>12,4 %</b></p>
<p><b>Qo'ylar</b></p> <p><b>9,1 mlrd. so'm</b></p>  <p><b>11,0 %</b></p>	<p><b>Otlar</b></p> <p><b>0,4 mlrd. so'm</b></p>  <p><b>0,5 %</b></p>	<p><b>Echkilar</b></p> <p><b>2,5 mlrd. so'm</b></p>  <p><b>3,0 %</b></p>
<p><b>Kurka, o'rdak, g'oz</b></p> <p><b>0,1 mlrd. so'm</b></p>  <p><b>0,1 %</b></p>	<p><b>Tovuqlar</b></p> <p><b>0,1 mlrd. so'm</b></p>  <p><b>0,1 %</b></p>	<p><b>Quyionlar</b></p> <p><b>0 mlrd. so'm</b></p>  <p><b>0,0 %</b></p>
<p><b>Qushlar</b></p> <p><b>0 mlrd. so'm</b></p>  <p><b>0,0%</b></p>		



## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- fevral holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 848 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 4 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 844 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>50,5</b>	<b>105,9</b>
Buxoro shahri	26,1	106,3
Kogon shahri	1,2	108,1
<i>tumanlar:</i>		
Olot	0,8	107,6
Buxoro	2,2	106,8
Vobkent	3,1	104,3
G'ijduvon	4,2	106,2
Kogon	0,9	107,5
Qorako'l	2,2	103,8
Qorovulbozor	1,7	103,3
Peshku	0,9	105,2
Romitan	4,4	104,4
Jondor	1,7	105,8
Shofirkon	1,1	105,6

2024- yilning yanvar oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 50,5 mlrd. so'mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan 105,9 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 91,6 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	<b>Hajmi, mlrd. so'm</b>	<b>Ulushi, foizda</b>
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>378,1</b>	<b>100,0</b>
Buxoro shahri	247,5	65,5
Kogon shahri	1,1	0,3
<i>tumanlar:</i>		
Olota	0,3	0,1
Buxoro	2,4	0,6
Vobkent	64,4	17,0
G'ijduvon	53,3	14,1
Kogon	0,6	0,1
Qorako'l	2,2	0,6
Qorovulbozor	0,4	0,1
Peshku	1,0	0,3
Romitan	1,6	0,4
Jondor	0,8	0,2
Shofirkon	2,5	0,7


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Buxoro shahri (247,5 mlrd. so'm), Vobkent (64,4 mlrd. so'm) va G'ijduvon (53,3 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so‘m)




2024- yilning yanvar oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 378,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 60,0 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 274,8 mlrd. so‘m (o'sish sur'ati – 159,4 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 103,3 mlrd. so‘mni (o'sish sur'ati – 161,8 %) tashkil qildi.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 852,5 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 8,9 % ga o‘tdi.

## Savdo aylanmasi va ulushi



**Yirik korxonalar**



**Mikrofirma va kichik korxonalar**

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 670,4 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 117,3 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 78,6 % ni tashkil qildi.

## ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATI

2024- yil 1- fevral holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 2 555 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 23 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 532 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o‘shish sur‘atlariga ega eng yirik korxonalar Buxoro (2,5 m.), Kogon (3,0 m.) shaharlarida va Qorovulbozor tumanida (3,1 m.) kuzatildi.

	Jami mlrd. so‘m	2023- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>852,5</b>	<b>108,9</b>
Buxoro shahri	263,5	133,8
Kogon shahri	13,6	163,3
<i>tumanlar:</i>		
Olota	6,1	113,1
Buxoro	26,0	114,9
Vobkent	65,2	54,7
G‘ijduvon	91,3	123,1
Kogon	78,0	91,5
Qorako‘l	13,5	143,4
Qorovulbozor	6,8	112,9
Peshku	70,2	114,0
Romitan	89,2	111,5
Jondor	123,9	113,2
Shofirkon	5,2	114,7